



DAVR XARAJATLARI.YALPI MARJA

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna¹,

Ruziyev Ulug'bek Aziz o'g'li²,

SHodiyev Jamshi Muxtor O'g'li³

¹ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Buxgalteriya hisobi” kafedrasida katta uqituvchisi:

e-mail: dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

² Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi:

Ulugbekaziz2002@gmail.com

³ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi:

shodiyevjmskd@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada korxonalarda davr xarajatlari va yalpi marjaning iqtisodiy mohiyati, ularning moliyaviy natijalarga ta'siri hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida davr xarajatlarining tarkibi, ularni samarali boshqarish mexanizmlari, yalpi marjaning rentabellik va foyda ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Maqolada davr xarajatlarining nazariy mohiyati, ularning yalpi marja va operatsion foyda ko'rsatkichlariga ko'rsatadigan o'zaro ta'siri hamda ushbu elementlarni xalqaro (XMHS) va milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) asosida yuritishning o'ziga xos jihatlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va iqtisodiy koeffitsiyentlar metodlaridan foydalanilgan holda, korxonalarda rentabellik darajasini oshirish hamda xarajatlarni strategik boshqarish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida xarajatlarni optimallashtirish orqali yalpi marjani oshirish imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik kuzatuv va moliyaviy



ko'rsatkichlarni baholash usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, davr xarajatlarini nazorat qilish va yalpi marjani muntazam monitoring qilish korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada korxonalarda xarajatlarni boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

TAYANCH SO'ZLAR. Davr xarajatlari, yalpi marja, moliyaviy natija, sof foyda, rentabellik, ishlab chiqarish tannarxi, sotuv xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, operatsion xarajatlar, iqtisodiy tahlil, xarajatlarni boshqarish, moliyaviy hisobot, korxonon samaradorligi.

ПЕРИОДИЧЕСКИЕ РАСХОДЫ. ВАЛОВАЯ МАРЖА

Худайнзарова Дилноза Гафуровна¹,

Рузиев Улугбек Азиз угли²,

Шодиев Жамшид Мухтор угли³

*¹ Самаркандский институт экономики и сервиса
старший преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет»*

e-mail: dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

² Студент Самаркандского института экономики и сервиса

e-mail: Ulugbekaziz2002@gmail.com

³ Студент Самаркандского института экономики и сервиса

shodiyevjmskd@gmail.com

АННОТАЦИЯ. В данной статье научно проанализированы экономическая сущность периодических расходов и валовой маржи на предприятиях, их влияние на финансовые результаты, а также их роль в принятии управленческих решений. В ходе исследования изучены структура



периодических расходов, механизмы их эффективного управления, а также влияние валовой маржи на показатели рентабельности и прибыли. В статье системно рассмотрены теоретическая сущность периодических расходов, их взаимосвязь с валовой маржой и операционной прибылью, а также особенности ведения учета данных элементов на основе международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) и национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБУ). В процессе исследования использовались методы сравнительного анализа, экономико-математического моделирования и анализа экономических коэффициентов, на основе которых разработаны научные предложения и практические рекомендации по повышению уровня рентабельности и стратегическому управлению затратами на предприятиях. Также освещены возможности увеличения валовой маржи за счет оптимизации затрат на производственных и сервисных предприятиях. В исследовании применялись методы экономического анализа, сравнения, статистического наблюдения и оценки финансовых показателей. Результаты показали, что контроль периодических расходов и постоянный мониторинг валовой маржи являются важными факторами повышения конкурентоспособности предприятия. В статье также разработаны практические рекомендации по управлению затратами на предприятиях.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: периодические расходы, валовая маржа, финансовый результат, чистая прибыль, рентабельность, себестоимость продукции, расходы на продажу, административные расходы, операционные расходы, экономический анализ, управление затратами, финансовая отчетность, эффективность предприятия.

PERIOD COSTS.GROSS MARGIN.

Khudaynazarova Dilnoza Gafurovna¹,



Ruziyev Ulugbek Aziz ogli²,

SHodiyev Jamshi Muxtor O'g'li³

*¹ Samarkand Institute of Economics and Service
Senior Lecturer of the "Accounting" Department*

e-mail: dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

² Student of Samarkand Institute of Economics and Service

e-mail: Ulugbekaziz2002@gmail.com

Student of Samarkand Institute of Economics and Service

shodiyevjmskd@gmail.com

ABSTRACT. This article provides a scientific analysis of the economic essence of period expenses and gross margin in enterprises, their impact on financial results, and their role in managerial decision-making. The study examines the structure of period expenses, mechanisms for their effective management, and the impact of gross margin on profitability and income indicators. The article systematically analyzes the theoretical nature of period expenses, their interrelation with gross margin and operating profit, as well as the specific features of accounting for these elements under International Financial Reporting Standards (IFRS) and National Accounting Standards. The research employs comparative analysis, economic-mathematical modeling, and coefficient analysis methods, based on which scientific proposals and practical recommendations have been developed to improve profitability levels and strategic cost management in enterprises. In addition, opportunities to increase gross margin through cost optimization in production and service enterprises are highlighted. The study also applies economic analysis, comparison, statistical observation, and financial performance evaluation methods. The results show that controlling period expenses and continuously monitoring gross margin are key factors in enhancing enterprise competitiveness. Practical recommendations for cost management in enterprises are also provided.



KEYWORDS: period expenses, gross margin, financial result, net profit, profitability, production cost, selling expenses, administrative expenses, operating expenses, economic analysis, cost management, financial reporting, enterprise efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti tobora rivojlanib borayotgan sharoitda korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning ichki iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytirish hamda xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining samaradorligi, avvalo, mavjud resurslardan qay darajada oqilona foydalanilishiga, xarajatlarni to'g'ri boshqarishga va moliyaviy natijalarni aniq rejalashtirishga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ham korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirishga imkon yaratmoqda. Bu esa korxonalarda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, xarajatlarni samarali nazorat qilish va yuqori moliyaviy natijalarga erishish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Davr xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish jarayonidan tashqari faoliyati bilan bog'liq xarajatlar bo'lib, ular ma'muriy boshqaruv, marketing, reklama, sotuv, ijara, xizmat safarlari, ofis xarajatlari hamda boshqa operatsion faoliyat bilan bog'liq sarf-xarajatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilmasa-da, korxonaning yakuniy moliyaviy natijasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Agar davr xarajatlari me'yorida ortib ketsa, korxonaning sof foydasi kamayadi va rentabellik darajasi pasayadi. Shu sababli korxonalar rahbariyati davr xarajatlarini doimiy nazorat qilib borishi, ularni iqtisodiy jihatdan asoslangan holda rejalashtirishi lozim. Yalpi



marja esa korxonona faoliyatining eng muhim moliyaviy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Yalpi marja korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini, resurslardan foydalanish darajasini hamda narx siyosatining qay darajada to'g'ri tashkil etilganligini ko'rsatadi. Agar yalpi marja yuqori bo'lsa, bu korxonona ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarayotganini va bozorda yetarli iqtisodiy ustunlikka ega ekanligini anglatadi. Aksincha, yalpi marjaning pastligi ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligi yoki narx siyosatidagi kamchiliklarni ko'rsatishi mumkin.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. davr xarajatlarining asosiy turlari hamda ularning korxonona faoliyatidagi o'rni tahlil qilish;
2. yalpi marja tushunchasi, uning shakllanish mexanizmi va iqtisodiy ahamiyatini yoritish;
3. korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xarajatlar tahlilining ahamiyatini asoslab berish;
4. davr xarajatlarini optimallashtirish orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini ko'rsatish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar tasnifi va moliyaviy natijalar tahlili ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. G'arb iqtisodiy maktabi vakillaridan Sh.Datardan, R.Garson va J.Fosterlar o'zlarining fundamental asarlarida davr xarajatlarini (period costs) bevosita mahsulot ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq bo'lmagan, balki ma'lum bir vaqt davrining o'tishi bilan yuzaga



keladigan va hisobot davrining foydasidan to'g'ridan-to'g'ri chegirib tashlanadigan xarajatlar sifatida ta'riflashgan. Ularning fikricha, yalpi marja (gross margin) ishlab chiqarish samaradorligining birlamchi indikatori bo'lib, u korxonaning o'z davr xarajatlarini qoplash salohiyatini ko'rsatadi. Boshqaruv hisobi va strategik xarajatlar tahlili yo'nalishida K.Druri hamda Ch.Xorngrenlar xarajatlarni "mahsulot xarajatlari" (product costs) va "davr xarajatlari" (period costs)ga ajratishning korxonalar rahbariyati uchun qaror qabul qilishdagi ahamiyatini isbotlab berganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, davr xarajatlari ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish va sotish bozorlarini kengaytirish uchun zarur bo'lgan doimiy xarajatlar xarakteriga ega.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Avloqulov, K.Urazov, A.Karimov va R.Xolbekovlarning ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS), xususan 21-son BHMS va 2-son BHMS talablari asosida davr xarajatlarining tarkibi atroflicha o'rganilgan. SH.Gulyamova va u.Azizovlar esa o'z tadqiqotlarida yalpi marja va operatsion marja o'rtasidagi farqlarni milliy soliq tizimi sharoitida tahlil qilganlar. Biroq, iqtisodiyotni globallasuvi va korxonalarining Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) o'tishi sharoitida, davr xarajatlarining yalpi marjaga ta'sirini integratsiyalashgan holda tadqiq etishga doir yondashuvlar hali ham yetarlicha shakllanmagan va qo'shimcha izlanishlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda deduktiv yondashuvga asoslanilgan bo'lib, unda dastlab umumiy iqtisodiy qonuniyatlar va xalqaro andozalar ko'rib chiqildi, so'ngra ular korxonalarining real amaliyotiga tatbiq etildi. Axborot manbai sifatida korxonalarining "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-sonli shakl) ma'lumotlari, Davlat statistika agentligi to'plamlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar



qabul qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy tahlilning qiyosiy baholash, indekslar, trend tahlili va koeffitsiyentlar hisobi kabi metodlaridan keng foydalanildi. Matematik jihatdan iqtisodiy ko'rsatkichlarni ifodalash va tahlil qilish uchun quyidagi formulalar tizimi qo'llanilgan:

Yalpi marja (YM) yoki yalpi foyda ko'rsatkichi sotishdan olingan sof tushum va sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi:

$$YM = ST - IT$$

Bu yerda:

- ST – mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan olingan sof tushum;
- IT – sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi.

Yalpi marja darajasi (YMD) esa korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi koeffitsiyenti hisoblanib, quyidagicha topiladi:

$$YMD = \left(\frac{YM}{ST} \right) \times 100\%$$

Davr xarajatlari (\$DX\$) o'z navbatida mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan, lekin davr oxirida foydadan chegiriladigan xarajatlar yig'indisidir:

$$DX = TX + MX + BOH$$

Bu yerda:

- TX – tijorat xarajatlari (reklama, transport, marketing, sotuv bo'limi ta'minoti);



- MX – ma'muriy xarajatlar (boshqaruv xodimlari ish haqi, ofis ijarasi, aloqa va aloqa vositalari);
- BOH – boshqa operatsion davr xarajatlari (shubhali qarzlari bo'yicha zaxiralar, jarimalar va h.k.).

Asosiy faoliyatdan (operatsion) olingan foyda (OF) yalpi marja va davr xarajatlari o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi:

$$OF = YM - DX$$

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirishda bevosita moddiy xarajatlar va ish haqi xarajatlari asosiy o'rinni egallasa-da, korxonaning yakuniy rentabelligiga davr xarajatlarning o'sish sur'ati keskin ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda shartli ishlab chiqarish korxonasining moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilingan.

Ko'rsatkichlar nomi	1-yil (mln. so'm)	2-yil (mln. so'm)	O'zgarishi (+/-)	O'sish sur'ati (%)
Sotishdan olingan sof tushum	12 000	15 500	+3 500	129.1
Sotilgan mahsulot tannarxi	7 500	9 200	+1 700	122.6
Yalpi marja (Yalpi foyda)	4 500	6 300	+1 800	140.0
Davr xarajatlari, jami:	2 100	3 400	+1 300	161.9



shu jumladan: Tijorat xarajatlari	800	1 400	+600	175.0
Ma'muriy xarajatlar	1 100	1 600	+500	145.4
Boshqa operatsion xarajatlar	200	400	+200	200.0
Asosiy faoliyatdan olingan foyda	2 400	2 900	+500	120.8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida sotishdan olingan tushum 29.1 foizga oshgan bo'lsa, yalpi marja ko'rsatkichi undan ham yuqori sur'atda, ya'ni 40.0 foizga o'sgan (\$4 500\$ mln. so'mdan \$6 300\$ mln. so'mga yetgan). Bu ijobiy holat bo'lib, ishlab chiqarish tannarxining oqilona nazorat qilinganligidan dalolat beradi. Biroq, davr xarajatlarining o'sish sur'ati 61.9 foizni tashkil etib, yalpi marjaning o'sish sur'atidan sezilarli darajada ilgarilab ketgan. Ayniqsa, tijorat xarajatlari (175.0%) va boshqa operatsion xarajatlar (200.0%) keskin ko'paygan. Davr xarajatlarining bunday nazoratsiz o'sishi natijasida, yalpi marja 1 800 mln. so'mga ko'paygan bo'lsa-da, asosiy faoliyatdan olingan yakuniy foyda bor-yo'g'i 500 mln. so'mga yoki 20.8 foizga oshgan xolos. Korxonada **boshqaruv ineffektivligi** mavjud. Ishlab chiqarish (zavod) juda a'lo darajada ishlab, tejamkorlik bilan foyda keltirmoqda, biroq ofis (menejment, marketing va ma'muriyat) bu foydani noto'g'ri xarajatlar evaziga sovurmoqda.

Agar davr xarajatlarining o'sish sur'ati jilovlanmasa, kelgusida sotuvlar biroz kamaygan taqdirda ham, korxonada juda tez zararga kirib ketishi mumkin (chunki ofis va ma'muriyat xarajatlari odatda doimiy xarakterga ega bo'lib, sotuv kamayganda ham o'z-o'zidan kamayib qolmaydi).



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar va o'tkazilgan tizimli tahlillar shundan dalolat beradiki, zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va strategik raqobatbardoshlikka erishish faqatgina ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bilan cheklanmaydi. Korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish va yuqori yalpi marja (gross margin) ko'rsatkichiga erishish — moliyaviy muvaffaqiyatning dastlabki bosqichi bo'lib, u yakuniy operatsion foydaning yuqori bo'lishini to'liq kafolatlay olmaydi. O'tkazilgan dinamik tahlillar tasdiqlaganidek, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning sotilishi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, biroq vaqt o'tishi bilan muntazam oshib boruvchi davr xarajatlarining (ma'muriy, tijorat va boshqa operatsion xarajalar) nazoratsiz kengayishi korxonaning ishlab chiqarish blokida erishilgan iqtisodiy samaradorligini butunlay yo'qqa chiqarishi mumkin.

Yalpi marja darajasining yuqoriligi korxonaning bozorda to'g'ri marketing va narx siyosatini olib borayotganligini ko'rsatadi, ammo davr xarajatlarining o'sish sur'ati tushum va yalpi foyda o'sishidan ilgari ketganda, korxonada salbiy operatsion (operating leverage) effekti yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida xo'jalik yurituvchi subyektning investitsiyaviy jozibadorligini pasaytirib, uni inqirozli holatlarga yetaklashi xavfini tug'diradi. Ushbu takliflarning amaliyotga tizimli ravishda tatbiq etilishi korxonalarda davr xarajatlarining o'sish sur'atini jilovlashga, yalpi marjadan oqilona foydalanish orqali asosiy faoliyat foydasini hamda sof rentabellik darajasini o'rtacha 15-20% ga oshirishga zamin yaratadi. Kelajakdagi tadqiqotlarimiz yo'nalishi raqamli iqtisodiyot sharoitida davr xarajatlarini strategik modellashtirish va xarajatlarni funksional boshqarish (Activity-Based Costing) tizimlarini real korxonalar kesimida modellashtirishga qaratiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2016-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi".
3. Karimov A.A., Avloqulov A.Z., Ibragimov A.K. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 560 b.
4. Datar, Srikant M., and Madhav V. Rajan. *Horngren's Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. 16th ed. New York: Pearson, 2018. 345–360.
5. Urazov K.B., Mamatov M.B. Boshqaruv hisobi. Darslik. - T.: "Gafur Gulom", 2022. - 412 b.
6. Drury, Colin. *Management and Cost Accounting*. 11th ed. Cengage Learning, 2020. 120-135.
7. Abdullayev Yo. Boshqaruv hisobi. Toshkent, 2021.
8. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent, 2022.